

**BOLALARDA TEMIR TANQISLIGI ANEMIYASI: SABABLARI VA OLDINI
OLISH YO‘LLARI**

Baxronova Vasila Baxtiyorovna

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti talabasi

Temir tanqisligi anemiyasi (TTA) pediatriyada eng ko‘p uchraydigan gematologik muammolardan biri hisoblanadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST)ning ma‘lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘yicha 6 yoshgacha bo‘lgan bolalarning qariyb 40–50 foizida ushbu kasallik uchraydi. Temir tanqisligi nafaqat qon tarkibidagi o‘zgarishlarga, balki bolaning umumiy rivojlanishiga ham bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Kamqonlik bolaning psixomotor rivojlanishini sekinlashtiradi, aqliy salohiyatini pasaytiradi, immun tizimini susaytiradi hamda tez-tez kasallanishga olib keladi. Shu bois pediatriya amaliyotida TTAni erta aniqlash, samarali davolash va oldini olish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. **Temir tanqisligi anemiyasining sabablari.** Bolalarda TTA rivojlanishiga turli omillar sabab bo‘ladi:

1. Ovqatlanishdagi kamchiliklar – bolalar rasionida go‘sht, jigar, tuxum sarig‘i kabi temirga boy mahsulotlarning yetarli emasligi asosiy sabab hisoblanadi. O‘simlik mahsulotlaridagi temir hayvon mahsulotlariga qaraganda ancha yomon so‘riladi.

2. Onaning homiladorlik davridagi sog‘ligi – agar ona homiladorlik paytida kamqonlikdan aziyat chekkan bo‘lsa, chaqaloq tug‘ilganda temir zaxirasi juda past bo‘ladi.

3. Tez o‘shish davri – ayniqsa 6 oydan 2 yoshgacha bo‘lgan davrda bola organizmida temirga bo‘lgan talab keskin ortadi. Bu davrda qo‘shimcha ovqatlar temirga boy bo‘lmasa, anemiya tez yuzaga keladi.

4. Surunkali kasalliklar va parazitlar – ichak parazitlari, tez-tez uchraydigan infeksiyalar, ichak faoliyatining buzilishi temirning so‘rilishini kamaytiradi.

5. Irsiy va ijtimoiy omillar – kambag‘allik, noto‘g‘ri parhez, ota-onaning bilim yetishmasligi ham bolada kamqonlik xavfini oshiradi.

Anemiyaning og‘irlik darajalari. Bolalarda TTA og‘irlik darajasiga ko‘ra uch xil bo‘ladi:

Yengil daraja – gemoglobin 110–90 g/l;

O‘rta daraja – gemoglobin 89–70 g/l;

Og‘ir daraja – gemoglobin 69 g/l dan past.

Og‘ir darajadagi anemiya bolaning o‘shini jiddiy ravishda susaytiradi, yurak faoliyatiga va miya rivojlanishiga zarar yetkazadi

Klinik belgilari. TTA sekin-asta rivojlanadi, shuning uchun ko‘plab ota-onalar dastlabki belgilarni sezmaydi. Ammo vaqt o‘tishi bilan quyidagi klinik ko‘rinishlar paydo bo‘ladi:

Bola tez charchaydi, o‘yinlarda faol ishtirok etmaydi, loqayd bo‘ladi; Teri va shilliq qavatlar oqarib ketadi;

Soch to‘kiladi, tirnoqlar mo‘rtlashadi;

Ishtaha yo‘qoladi, ba‘zan pika (bo‘lmagan narsalarni yeyishga intilish – tuproq, bo‘r) kuzatiladi;

Bola tez-tez shamollaydi, chunki immunitet pasayadi;

Og‘ir hollarda – yurak urishining tezlashishi, bosh aylanishi va hushdan ketish ham bo‘lishi mumkin.

Diagnostika. TTA tashxisini qo‘yishda laborator tekshiruvlar muhim ahamiyat kasb etadi: Qon umumiy tahlili – gemoglobin miqdorining kamayishi, eritrotsitlarning kichrayishi (mikrositoz), rang ko‘rsatkichining pasayishi (gipoxromiya). Ferritin darajasi – organizmdagi temir zaxirasini ko‘rsatadi va erta tashxis qo‘yishda eng muhim ko‘rsatkichdir. Temir bilan bog‘liq biokimyoviy testlar – serum temiri, temir bilan to‘yinganlik ko‘rsatkichi.

Temir tanqisligi anemiyasini davolash kompleks yondashuvni talab qiladi: 1. Parhezni to‘g‘rilash. Bola rasionida qizil go‘sht, jigar, baliq, tuxum sarig‘i, sabzavot va mevalar bo‘lishi kerak. O‘simlik mahsulotlaridan olingan temir yomon so‘rilgani uchun ularni hayvon mahsulotlari bilan birga iste‘mol qilish tavsiya etiladi. 2. Temir preparatlari. Pediatr nazorati ostida sirop yoki tabletkalar ko‘rinishida temir dorilari buyuriladi. Davolash jarayonida C vitamini bilan birgalikda qabul qilingan temir yaxshiroq so‘riladi. 3. Asosiy kasalliklarni davolash. Agar bola ichak kasalliklari, parazitar infeksiyalar yoki surunkali yallig‘lanishlardan aziyat chekayotgan bo‘lsa, avvalo shu muammolar bartaraf etilishi zarur. 4. Profilaktik nazorat. Davolashdan keyin bola muntazam ravishda qon tahlilidan o‘tkazilib, gemoglobin darajasi kuzatib borilishi kerak.

Oldini olish choralari

Bolalarda TTAni oldini olish uchun quyidagi choralar muhimdir:

Homilador ayollarni temir preparatlari bilan ta‘minlash va kamqonlikni davolash;
Bolani ilk 6 oy davomida to‘liq ona suti bilan boqish;

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 02. Issue 08. August 2025

6 oydan boshlab temirga boy qo‘shimcha ovqatlarni kiritish (go‘sht pyuresi, sabzavotlar, don mahsulotlari);

Bolalarni yiliga kamida ikki marta profilaktik ko‘rikdan o‘tkazish;

Ota-onalarga ovqatlanish va sog‘lom turmush tarzi haqida muntazam tushuntirish ishlarini olib boorish.

Bolalarda temir tanqisligi anemiyasi keng tarqalgan va dolzarb muammo hisoblanadi. U bolaning nafaqat jismoniy o‘shiga, balki intellektual salohiyatiga ham jiddiy ta‘sir ko‘rsatadi. Pediatriklarning vazifasi – kasallikni erta aniqlash, ota-onalarga to‘g‘ri tavsiyalar berish va samarali profilaktik choralarni yo‘lga qo‘yishdan iborat. Shunda kelajak avlod sog‘lom va baquvvat ulg‘ayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. World Health Organization. Iron Deficiency Anaemia: Assessment, Prevention, and Control. Geneva, 2001.
2. Савицкая Т.В., Детская гематология. – Москва: ГЭОТАР-Медиа, 2018.
3. Умарова Н.Ш., Pediatriyada temir tanqisligi anemiyasi. – Toshkent, 2020.
4. Bhatia J., Iron deficiency and related nutritional anemias in children. Pediatric Clinics, 2019.

**Research Science and
Innovation House**